



Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 216 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 224 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 449,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 127,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 265,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 145,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 183,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 546,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 144,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 1 065 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 048 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 884,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 649,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,8 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'ati Shirin shahar (123,8%) hamda Xovos (178,5) va Sayxunobod (130,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 605 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 604 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 863,9 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining 92,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi–2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo soxasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: K.Yusupov Tel: +672367000 (2040)	Ijrochi: K.Yusupov Tel: +672367000 (2040) e-pochta: info@sirstat.uz	Manzil: Guliston sh., Birlashgan ko'chasi,62
--	---	--	--